

OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA MUNOZARA VA DIALOG USULLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Jahonova Rayhona Fayzulla Qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Masofaviy va kechki ta'lim fakulteti IV bosqich 404- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18333930>

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish jarayonida munozara va dialog usullarining pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida og'zaki nutq tushunchasining pedagogik-psixologik asoslari, munozara va dialog metodlarining nazariy manbalardagi talqini hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi o'rganildi. Hujjatlar tahlili va metodologik yondashuvlar asosida mazkur metodlarning o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini shakllantirishdagi roli asoslab berildi. Tadqiqot natijalari munozara va dialog usullari og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, munozara usuli, dialog metodlari, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, nutq madaniyati.

Abstract: This article provides an in-depth scientific analysis of the pedagogical importance of debate and dialogue methods in developing oral speech skills of university students. The study examines theoretical foundations of oral communication, methodological approaches, and the effectiveness of debate and dialogue techniques in higher education. Based on document analysis and pedagogical research, the role of these methods in fostering communicative competence, critical thinking, and speech culture is substantiated. The findings confirm that debate and dialogue methods serve as effective pedagogical tools for improving students' oral speech abilities.

Keywords: oral speech, debate method, dialogue techniques, communicative competence, pedagogical technologies, speech culture.

Аннотация: статье представлен всесторонний научный анализ педагогического значения методов дебатов и диалога в развитии устной речи студентов высших учебных заведений. Рассматриваются теоретические основы устной речи, методологические подходы и эффективность применения данных методов в образовательном процессе. На основе анализа научных источников обоснована роль дебатов и диалога в формировании коммуникативной компетентности, критического мышления и культуры речи обучающихся.

Ключевые слова: устная речь, метод дебатов, диалог, коммуникативная компетенция, педагогические технологии, культура речи.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ayniqsa, uning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi¹. Ta'lim jarayonida bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, fikrini erkin va mantiqiy bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

1 Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019. – 52-bet.

Davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutqiy faolligi ko'p jihatdan qo'llanilayotgan pedagogik metodlarga bog'liq. An'anaviy ma'ruza va reproduktiv usullar o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli interfaol ta'lim metodlari, xususan, munozara va dialog usullaridan foydalanish og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Munozara va dialog usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi, nutqiy faoliyatga jalb etadi, hamda ularni ijtimoiy muloqotga tayyorlaydi. Shu jihatdan mazkur maqolada ushbu metodlarning pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish zarurati mavjud.

Nutq madaniyati tushunchasi fikrni aniq, ravon va mantiqiy ifodalash bilan bog'liq bo'lib, u til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishni talab etadi³. Shuningdek, chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi².

HUJJATLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Sharq va G'arb olimlarining kommunikativ yondashuv, dialogik ta'lim hamda interfaol metodlar haqidagi ilmiy qarashlari o'rganildi³.

Hujjatlar tahlili jarayonida davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalarda og'zaki nutqni rivojlantirishga qo'yilgan talablar tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

tizimli yondashuv – og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish;

faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchining nutqiy faoliyatini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish;

kommunikativ yondashuv – munozara va dialogni real muloqot vositasi sifatida talqin etish.

Mazkur metodologik asoslar tadqiqotning ilmiy xolisligini ta'minlashga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, munozara usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Munozara jarayonida o'quvchilar o'z fikrini asoslashga, dalillar keltirishga va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilishga o'rganadilar⁴. Bu jarayon nutqning mantiqiyliги, aniqligi va ifodaliligini oshiradi.

Dialog usuli esa muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Dialog jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, savol-javob orqali nutqiy faollikni oshiradi. Bu usul og'zaki nutqning tabiiy shakllanishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, munozara va dialog usullarining muntazam qo'llanilishi:

o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi;

• mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;

• og'zaki nutq madaniyatini rivojlantiradi;

• ijtimoiy muloqotga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, mazkur metodlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahorati va darsni to'g'ri tashkil etishiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

2 Passov E.I. Kommunikativ metodika. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017. – 93-sahifa.

3 Karimova V. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020. – 82-bet.

4 G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 118-bet.

XULOSA

Olib borilgan kuzatuvlarda, munozara va dialog usullari davlat ta'lim tizimida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o'quvchining shaxsiy faolligini oshiradi, nutqiy kompetensiyani shakllantiradi hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur usullarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, raqobatbardosh va kommunikativ jihatdan yoshlarning erkin fikrlash va tahlil qilishga bo'lgan layoqatini oshirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019. – 52-b.
2. Passov E.I. Kommunikativ metodika. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017. – 93-b.
3. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 118-b.
4. Karimova V. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020. – 82. – b